



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK SANOAT ZONALARNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI.

**Qoraboev Xayrulla Urozalievich**

Toshkent iqtisodiyot va soliq texnikumi, Ishlab chiqarish ta'limi  
bo'yicha direktor o'rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15303145>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Aprel 2025 yil  
Ma'qullandi: 25- Aprel 2025 yil  
Nashr qilindi: 29-Aprel 2025 yil

### KEYWORDS

*kichik va o'rta biznes, sanoat  
ishlab chiqarish, kichik sanoat  
zonalari, raqamli iqtisodiyot,  
industrial park, outsorsing  
tizimi, transaksion xarajatlar,  
klaster tizimi, sinergiya  
samarasi.*

### ABSTRACT

*Maqolada hozirgi kunda kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash va sanoatning texnologik rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni hal etishning muhim mexanizmlaridan biri industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalari tashkil etilishi, jahon mamlakatlarida kam rivojlangan va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan hududlarda industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarni tashkil etish orqali rivojlantirish, bu orqali iqtisodiy salohiyat va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, kichik sanoat zonalari joylashgan hududlardagi investitsion jozibadorlikni oshirish, shu asosda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda aholi bandligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.*

Rivojlangan xorijiy davlatlarda kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash va sanoatning texnologik rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni hal etishning muhim mexanizmlaridan biri industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalari hisoblanadi. Hozirgi kunda AQSh va Xitoyda 400 tadan, Germaniyada 200 ta, Turkiyada 262 ta, Vetnamda 200 ga yaqin industrial parklar faoliyat yuritmoqda. Mazkur zonalar ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik bazasini shakllantirish, raqamli iqtisodiyotni tashkil qilish, ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsiyalarni joriy etish hamda ilm-fan sig'imi yuqori mahsulotlar yaratish va xizmat ko'rsatishni ta'minlashda asos rolini o'ynamoqda.

Jahon mamlakatlarida kam rivojlangan va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan hududlarda industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarni tashkil etish orqali rivojlantirish, bu orqali iqtisodiy salohiyat va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, kichik sanoat zonalari joylashgan hududlardagi investitsion jozibadorlikni oshirish, shu asosda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda aholi bandligini oshirish masalalarining ilmiy tadqiqotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, kichik sanoat zonalarni barpo etishda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy taraqqiyot tamoyillari va tendensiyalarini to'liq qamrab oluvchi konseptual modellarni ishlab chiqish, mazkur

jarayonlardan davlat iqtisodiy siyosatining muhim dastagi sifatida foydalanish muammolari bu boradagi ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqirishni jadallashtirishga muhim hissa qo'shuvchi kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, bu borada "milliy iqtisodiyotning raqamli iqtisodiyot asosida, yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish, sanoatda chuqur tarkibiy o'zgarishlarga erishish, hududlarning mavjud sanoat salohiyatidan samarali foydalanish" vazifalari belgilab berilgan. Hozirda mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish orqali davlatning sanoat siyosatini amalga oshirish, kichik sanoat zonalarini joylashgan hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, hududlardagi foydalanilmayotgan xomashyo, mehnat va moliya resurslarini ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, korxonalar o'rtasida kooperatsion aloqalarni kuchaytirish natijasida sinergetik samaraga erishishga harakat qilinmoqda.

Industrial park deganda, alohida ishlab chiqarish kompleksi bo'lib, yagona rivojlanish konsepsiyasi va infratuzulmasiga ega yo'nalish bo'yicha xizmat ko'rsatish va samarali ishlab chiqarishni boshqaruv kompaniyasi tomonidan ta'minlanuvchi, faoliyati davlat tomonidan kafolatlanuvchi va imtiyoz olish imkoniyatiga ega mintaqa iqtisodiyotining hududiy tarkibi elementi tushuniladi. Industrial parkning asosiy bazis elementlari sanoat ishlab chiqarishiga mo'ljallangan yer maydoni mavjudligi, boshqaruv kompaniyasi va infratuzulmaning (muhandislik, transport, moliya va ijtimoiy) mavjudligi, maxsus iqtisodiy sharoitlar, yagona rivojlanish konsepsiyasi, resurslar va sotish bozorlariga chiqish imkoniyatlari mavjudligi hisoblanadi.

Бизнинг fikrimizga ko'ra industrial parklarni barpo etish va rivojlantirish bir qator vazifalar va muammolarni hal etishga olib keladi. Bularni to'rt guruhga bo'lib o'rganish mumkin: Rossiya Federatsiyasi darajasida, Rossiya Federatsiyasi sub'ekti darajasida: viloyat, o'lka, respublika, munitsipalitet darajasi va tadbirkorlik tarkibi darajasida.

- Rossiya Federatsiyasi darajasida:
  - sanoat ishlab chiqarishini rivojlantiradi;
  - innovatsion jarayonlarni rivojlantiradi;
  - innovatsion muhitni yaxshilaydi;
  - investitsiyalarni jalb etadi;
  - hududning balanslashgan, mutanosib va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.
- Rossiya Federatsiyasi sub'ekti darajasida:
  - shahar markazidagi sanoat korxonalarini shahardan chetga chiqarish orqali jadal rivojlanuvchi hudud barpo etish;
  - budjetga pul tushumi tushishini oshirish va budjet mablag'lari samarali sarflanishini oshirish;
  - bir qator mintaqalar iqtisodiyotini diversifikatsiyalash;
  - tadbirkorlik rivojlanishi uchun sharoit yaratish va ish o'rinlarini barpo etish.

Industrial parklarni klaster asosida rivojlantirishga ham muhim e'tibor berilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda klasterni shakllantirish va rivojlantirish muammolariga juda ko'p yondashuvlar mavjud. M.Porterning fikricha, klasterning vujudga kelishi ko'p hollarda

xomashyo resurslarini olish imkoniyati bo'lgan joylar bilan bog'liq bo'ladi, muhim texnologik innovatsiyalardan foydalanuvchi firma va tadbirkorlarning ma'lum bir joyda to'planishi sabab bo'lishi mumkin. Yirik korxonalar klasterning yadrosi hisoblanadi. Shu yadro atrofida keyinchalik maxsus ta'minotchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar barpo etiladi. Keyinchalik klasterda ta'lim muassasalari, klasterga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar paydo bo'ldi. Klasterni shakllantirish bo'yicha xalqaro tajribaga ko'ra, (masalan, Xitoyning avtomobil klasterini yaratish tajribasi), boshida bir yoki bir necha yirik korxonadan iborat sanoat zonasi tashkil etiladi. Bu esa ma'lum darajada infratuzilma elementlari va boshqa yordamchi ishlab chiqarishlar barpo etilishiga sabab bo'ladi.

Klasterni yaratishda eng muhim masalalardan biri yuqori malakali mutaxassis kadrlarni jalb etish orqali kadrlar salohiyatini rivojlantirish, u mahsulot ishlab chiqarishning, mahsulot ishlab chiqishdan tortib, to uni bozorda sotishgacha to'liq davrini yo'lga qo'yishi kerak.

Klasterni shakllantirish tabiiy holatda yuz beradi, buning uchun, ya'ni klasterning shakllanishi uchun davlat yaxshi sharoit yaratishi lozim. Klasterning ustun tomonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- transaksion xarajatlarni kamaytirishga olib keladi (resurslarni birlashtirish natijasida);
- sinergiya samarasi vujudga keladi;
- innovatsiyalarni rivojlantirish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish tezlashadi.

Klasterlarning salbiy tomonlarini ifodalaydigan bo'lsak:

- ixtisoslashuv mahsulot sifatini oshirish bilan birga klasterni zaiflashtirishi (mahsulotga talabning kamayishi) ham mumkin;
- tizimning o'zi bilan o'zi bo'lib qolish samarasi (effekt zamknutosti) paydo bo'lishi mumkin;
- ortiqcha ta'minlanganlik (sindrom samodostatochnosti) sindromining paydo bo'lish ehtimoli mavjudligi ishlab chiqarish hajmi pasayishiga olib keladi.

O'zbekiston sharoitida KSZlarda klasterni tashkil etish bosqichlarini keltiramiz:

1. Davlatning KSZni strategik rivojlantirish rejasini ishlab chiqish, ya'ni ishlab chiqariladigan yakuniy mahsulot turini aniqlash (klaster yadrosini aniqlash).
2. Yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchi asosiy korxonalarini va oraliq mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarini aniqlash.
3. Outsorsing bo'yicha ishlarni qabul qiladigan kichik biznes tarkibi va ishlar turini aniqlash.
4. Hududda tashkil etiladigan infratuzulma ob'ektlarini aniqlash.
5. Klasterni rivojlantirish markazini tuzish (innovatsion infratuzilma yoki ilmiy tadqiqot instituti yoki universitet bilan aloqa o'rnatish).

Klasterning shakllanishi uchun davlat tomonidan kerakli shart-sharoitlar yaratilishi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan hududiy lokal sanoat ishlab chiqarish tuzilmalarining umumiy jixatlarini tahlil qilish orqali va KSZlarning maqsadi, vazifalari va bazis ifodalaridan kelib chiqib, KSZga quyidagi muallif ta'rifi berildi: kichik sanoat zona-sanoat sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini tanlov asosida joylashtirishga mo'ljallangan va samarali rivojlanishini ta'minlovchi, davlat imtiyozi va kafolatini olish imkoniyatini beruvchi, past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalarining foydalanilmayotgan davlat mulki

hisoblangan bo'sh yer maydonlari va ortiqcha ishlab chiqarish maydonini o'z ichiga oluvchi muhandislik-texnik, transport kommunikatsiyalari o'tkazilgan va zarur infratuzilmaga ega hudud.

***Tadqiqotlarning vazifalari quyidagilardan iborat:***

kichik sanoat zonalarni barpo etish va rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish, ularning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritib berish;

kichik sanoat zonalarni barpo etish va rivojlantirishning hozirgi holatini tahlil qilish, ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va tizimlashtirish;

kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik sub'ektlarini tanlash va joylashtirish bo'yicha ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik mezonlar tizimini ishlab chiqish;

kichik sanoat zonalarni barpo etish va rivojlantirishga asos bo'luvchi bazis tamoyillarni tartiblashtirish, ular samaradorligini baholashning monitoring ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni tizimlashtirish;

kichik sanoat zonalarni barpo etish va rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqish;

hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini integral baholash va shu asosda kichik sanoat zonalarni turlarga ajratish hamda rivojlanish yo'nalishlarini belgilash;

O'zbekistonda grinfild kichik sanoat zonalarni barpo etishda davlat-xususiy sherikligidan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olgan holda kichik sanoat zonalarni barpo etish va rivojlantirishni davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rganish va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish borasida ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqish.

**Adabiyotlar:**

1. Yuldashev.R. Kichik sanoat zonalari iqtisodiy taraqqiyot va xalq turmush farovonligining muhim vositasidir. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnal. № 4 avgust, 2017 yil.
2. Xodiev.B.Yu., Maxmudov.N.M., Fayzullaev.Yo.Sh., Yusupov.M.S., Xomidov.S.O. Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini barqaror rivojlantirish omillari va tendensiyalari (sanoat va agrar tarmoq misolida). Monografiya. – T.: IQTISODIYOT, 2018. – 373 b.
3. www.ekonomy-web.org